

TA'LIM TIZIMI ORQALI YOSHLARNI ERKIN FIKRLASHGA YO'NALTIRISH

Tulaboyeva Gulorom Tulaboyevna,

Toshkent davlat transport universiteti

Chet tillar kafedrasida assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarda erkin muloqotni yo'lga qo'yish, Yoshlarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yoshlar-yoshlarning tanqidiy fikrlashi va o'z faoliyatiga munosabatlarini o'zgartirish masalasi o'ta muhimdir. Chunki bu masala bevosita yoshlarimiz ruhiyatiga, ongiga, tafakkuriga ta'sir etish yo'li bilan amalga oshiriladi. dars jarayonida faol qatnashish va yoshlar shaxsini shakllantirishda individual ta'limning ahamiyati ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, yoshlar shaxsini shakllantirishda individual ta'lim usullari aniq misollar bilan ifodalangan.

Kalit so'zlar: *individual ta'lim, tarbiya, shaxs, individ, temperament, konsorsium, vaqt, tanqidiy fikrlash, usul, rivojlanish, xususiyat.*

ABSTRACT

In this article, it is very important to establish free communication among young people, to change the critical thinking of young people and to change their attitude to their work in forming the ability of independent creative thinking in young people. Because this issue is implemented by directly affecting the psyche, mind, and thinking of our youth. The importance of individual education in active participation in the lesson process and the formation of the personality of young people is scientifically explained. Also, the methods of individual education in the formation of the personality of young people are expressed with specific examples.

Key words: *individual education, upbringing, person, individual, temperament, consortium, time, critical thinking, method, development, characteristic.*

KIRISH

Bugungi kunda shaxs tushunchasi psixologiya fanida juda keng mazmunga ega hisoblanadi. Shaxs mehnat tufayli hayvonot olamidanda ajralib chiqqan. Jamiyatda rivojlanuvchi til yordami bilan boshqa kishilar bilan (muloqot) muomalaga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Jjtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi. Shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning individualligi, ya'ni yakkaholligidir. Shaxs avvalo, shaxs bo'lib yetishishida 3 xislat namoyon bo'lishi kerak. Fikrlaydigan, tafakkur qiladigan ongi, so'zlasha oladigan nutqi va ijtimoiylashuvi hisoblanadi.

Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining takrorsiz birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga inson dunyoqarashi, qobiliyati, ichki kechinmalari, irodasi va shu kabilar kiradi. Inson tug'ilganida individ bo'lib tug'iladi. So'ngra undagi xislatlar, xususiyatlarga qarab shaxs sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Asosan individ shaxs sifatida 3 yoshida tanila boshlaydi. Shaxsni komil inson sifatida tarbiyalash juda murakkab jarayon hisoblanadi. Individual ta'lim o'qituvchining yoshlarga pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri. Pedagogning yoshlar bilan sinfdan tashqari olib boradigan ishlari individual ishlar sirasiga kiradi. Bu jarayon pedagogga o'zlashtirishi sust bo'lgan yoshlarni shaxsini shakllantirishga juda qo'l keladi. Individual ta'lim O'zbekiston tarixida keng qo'llanilib kelingan.

Ta'lim dargohlarida, bog'cha, maktab, litsey va Oliy o'quv yurtlarida aynan individual ta'lim orqali yoshlar shaxsini shakllantirish yo'lga qo'yilgan. Negaki, aynan shu yoshdagi yoshlar va yoshlarda shaxs tushunchasi to'liq shakllanmagan bo'ladi va bu ularni kelajakda komil inson bo'lib yetishishiga yordam beradi. Uni shakllantirish esa pedagogga yuklatiladi. Buning uchun har bir yoshlar bilan alohida shug'ullanib, uning xarakteri, temperamenti va muomala layoqatini tekshirish lozim bo'ladi.

Individuallashtirish - bizning tushunishimizcha - bu yoshlarda mavjud yoki o'zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o'ziga xosligini ta'minlab turish va rivojlantirish bo'yicha kattalarning hamda yoshlarning o'zining faoliyatlaridir.

Individuallashtirish, birinchidan, birlamchi asosiy ehtiyojlarini individual yo'naltirilgan yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi. Busiz tabiiy "o'zligini" his etish mumkin emas. Ikkinchidan, aynan mana shu individ uchun xos bo'lgan tarbiya bergan (meros bo'lib o'tgan) jismoniy, intellektual, emotsional qobiliyatlar imkoniyatlarni maksimal, erkin amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Va nihoyat, individuallashtirishning uchinchi belgisi, asosiy xislati - avtonom ma'naviy o'zini qurishda, o'zini ijodiy gavdalantirishda, "moslashuvchan bo'lmagan faollik", hayotiy o'z yo'lini tanlashdagi qobiliyatini rivojlantirishda insonga yordam ko'rsatishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shaxsni individuallashtirish uning "o'zligini" rivojlantirish, keng ma'noda insonparvarlik tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi, yoshlarga, ularning "sub'ektiv mavjudliklarini" tashkil etishda yordam ko'rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda, insonga o'zini anglash va o'zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab

chiqiladi. Endi faqat pedagog emas, balki yoshlarning o'zlari ham tarbiyaviy tizimining sub'ekti hisoblanadi (yoshlar asosan, tarbiya ob'ekti hisoblangan ta'sir ko'rsatish tarbiyaviy tizimidan uning asosiy farqi ham mana shundan iborat). Ushbu paradigmada pedagoglar ham, yoshlar ham maktab oldida turgan maqsadlarini birgalikda aniqlashtiradilar, ularni amaliy vazifalar darajasiga ko'taradilar va hamkorlikdagi faoliyatda amalga oshiradilar. Maktab insonparvarlik tarbiyaviy tizimi samaraliligining muhim sharti yoshlar va kattalarni umumiy jamoaga birlashtirish hisoblanadi. Yoshlar va kattalarning o'zaro munosabatlari mavhum munosabatlarni yuzaga keltiradi, ular birinchi navbatda tizimning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".[1] O'sib kelayotgan o'quvchi-yoshlarimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, tanqidiy tahlilni yoshligidan o'rgatib boradigan bo'lsak, biz o'ylaymizki, ushbu o'quvchi-yoshlar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishadi.

Tanqidiy fikrlashning ijodiy manbalari qadim zamonlarga borib taqaladi. Yaqin va O'rta Sharqda yashab ijod etgan o'rta asr mutafakkirlari tabiiy-ilmiy asarlarida ilmning turli tomonlari, uning prinsiplari, tuzilishi, mezonlari, ilmning inson aqliy rivoji va ta'limi bilan bog'liqligiga jiddiy qiziqish borligini kuzatamiz. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, ularning safdoshlari va izdoshlari gnoseologik qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, inson ongida predmet timsoli (obrazi)ni mavhumlashtirish jarayoni ular e'tiborini doimo jalb etgan, buning natijasida mazkur predmet mohiyati va o'ziga xosligi tushunchasi ishlab chiqilgan va shakllangan.

O'quvchi-yoshlar tanqidiy fikrlashini o'rganishda zamonaviy didaktika o'qish jarayonida o'quvchilar psixik tanqidiy fikrlashi bilan shug'ullanuvchi ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi.

Yoshlarni individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi. Yoshlarning individual xususiyati uning xulqiga, o'zlashtirishiga munosabatlariga jamoadagi o'rniga ta'sir etadi. Shu boisdan ham jamoadagi individlar tarbiyalanaётiganda alohida yoshlarni unutish yaramaydi. Chunki o'qituvchi ko'pgina tashkiliy ishlarni uyushtirishda kimga suyanish, kimga qanday vazifa yuklash, kimga mustaqillik berish va kimga muntazam erdam berish kerakligini faqat ularning individual xususiyatlarini yaxshi bilish tufayligina bexato aniqlaydi. Demak, individual munosabat yoshlarga tarbiyaviy ta'sir etishning eng samarali yo'lini topish imkoniyatini beradi.

Dars yoki darsdan tashqari mashg'ulot davomida ba'zi yoshlar o'zlarida bo'layotgan ichki kechinmalarini yaqqol namoyon eta olishmaydi. Ko'p hollarda pedagoglar bunga e'tibor qaratmaydilar. Odatda o'qituvchilar dars davomida o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan yoshlar bilan shug'ullanishni afzal ko'rishadi. O'zlashtirishi sust bo'lgan yoshlar esa o'z fikrlarini namoyon qilolmay dars jarayonlarida ishtirok eta olishmaydi. Natijada, yoshdan yoshga o'tish davrida juda ko'plab inqirozlarga duch kelishadi. Bular, o'rtoq ortira olmaslik, dars mashg'ulotlarini omma oldida so'zlay olmaslik, fikrini to'liq namoyon eta olmaslik va shu kabilar.

Individual ta'lim orqali yoshlar shaxsini shakllantirishda avvalo, darsdan tashqari uning saviyasi doirasida bo'lgan savollarni berish, tengdoshlari orasida uni maqtash ya'ni, uni rag'batlantirish, unga ko'proq fikrlaydigan va so'zlaydigan matnlarni uyga vazifa sifatida berish lozim bo'ladi. Individual ta'lim bilan ko'proq melanxolik temperamentli yoshlar bilan shug'ullanish kerak. Yoshlar shaxsini shakllanayotganini uni kuzatish metodi orqali aniqlashimiz mumkin. Do'stlari bilan qanday, darsga qay darajada qatnashayotganiga qarab bilib olamiz.

XULOSA

Xulosa o'rnida shu alohida ta'kidlash joizki, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, yoshlar shaxsini shakllantirish jarayonida muomalaning rolini qarab chiqar ekanmiz, u bilish va normativ jarayondan iborat bo'lib, yoshlarni ijtimoiy madaniyatga jalb etishga va ularda shaxsning ijtimoiy yo'nalish shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini, ijtimoiy qaror topish vositasi va usuli, bilish jarayoni bo'lgan muomala yoshlar ijodiy individualligini rivojlantirishga ta'sir qilishini ko'ramiz. O'rganilayotgan o'quv mavzularining mazmuni, yoshlarning individual hususiyatlari, real bilish imkoniyatlarini hisobga olib muammolar, muammoli savollarni o'rta tashlash, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish yoshlarda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi. Individual topshiriqlarning turlari juda ko'p bo'lib, o'simliklar o'stirish, gullar, sabzvatlar yetishtirish ham ana shunday topshiriqlar jumlasiga kiradi. Individual topshiriqlarda har bir yoshlarning imkoniyat va qiziqishlari hisobga olinsa, ular yoshlarning qobiliyatlari, iste'dodlarini o'stirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Tulaboyevna, T. G., & Mukhiddin o'g'li, M. H. (2023, January). SYMBOLS IN CURRENT MODERN LINGUISTICS. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 1, pp. 15-20).

2. Tulaboyevna, T. G., & Mukhiddin ogli, M. H. (2023, January). LEXICOLOGICAL ANALYSIS OF TERMS IN THE FIELD OF CONSTRUCTION IN ENGLISH. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 2, No. 1, pp. 166-172).
3. Zairjanovna, S. D., Tulaboevna, T. G., Mirsharapovna, S. Z., & Allovidinovna, I. D. (2022). FEATURES OF TRANSLATION OF MOVIE TITLE FROM ENGLISH TO UZBEK. *Journal of new century innovations*, 18(3), 179-185.
4. Sayitova Iroda Shuhrat kizi, Tulaboeva Gulorom Tulaboevna, Saydaliyeva Dilfuza Zairjanovna, & Yuldasheva Mamura Bahtiyarovna. (2022). ENGLISH AND UZBEK TRADITIONS, COMPARATIVE ANALYSIS. *Academica Globe: Inderscience Research*, 3(12), 39–44. Retrieved from <https://agir.academiascience.org/index.php/agir/article/view/995>
5. Mirsharapovna, S. Z., Allovidinovna, I. D., Zairjanovna, S. D., & Tulaboevna, T. G. (2022). INTERNET MEME AS A MEANS OF COMMUNICATION. *Journal of new century innovations*, 18(3), 193-199.
6. Allovidinovna, I. D., Zairjanovna, S. D., Tulaboevna, T. G., & Mirsharapovna, S. Z. (2022). COMPARISON OF WORD-FORMATION SYSTEMS IN ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES. *Journal of new century innovations*, 18(3), 200-208.
7. Tulaboevna, T. G., Mirsharapovna, S. Z., Allovidinovna, I. D., & Zairjanovna, S. D. (2022). FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN THE CONDITIONS OF INFORMATIZATION OF EDUCATION. *Journal of new century innovations*, 18(3), 186-192.
8. Saloxiddinovna, M. G., & Xaytbayevich, K. Y. (2022). Problems of Teaching ESP at the Technical Universities of Uzbekistan. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 120-122.
9. Mamadjanovna, K. M., Salaxiddinovna, M. G., Tulaboevna, T. G., & Zairjanovna, S. D. (2022). Current Problems of Training Pedagogical Staff for the Implementation of Inclusive Education. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 12-16.
10. Zairjanovna, S. D., Mamadjanovna, K. M., Salaxiddinovna, M. G., & Tulaboevna, T. G. (2022). Grade-Free Learning System as A Means of Creating a Psychologically Comfortable Educational Environment in the Class to Motivate a
11. Child to Successful Learning Activities. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 17-20.
11. Tulaboeva Gulorom, Dilfuza Saydaliyeva, (2022) Economics of education: Basic concepts and experience of sistem analysys, *Modern materials Science: Topical Issues, Achievements and Innovations*, 2022-4,5-03

12. Saydalieva, D. Z., Normirzaeva, D. M., Sheralieva, S. I., & Yuldasheva, A. Y. (2021). The Role Of Innovative Technologies In The English Lesson. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(2), 308-318
13. Kharatova, S., & Tulaboeva, G. (2022, June). Some interactive methods of teaching module system. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060005). AIP Publishing LLC.
14. Alidjanovna, T. M., Khakimovna, K. S., Tulaboevna, T. G., Shukurovna, A. K., & Xafizovich, U. K. (2021). *Lingu-Didactical Basis of*
15. Kharatova, S., Tulaboeva, G., & Xusanova, I. (2022, June). The role of computers in education. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060006). AIP Publishing LLC